



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 25-aprel

VI-100-54-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Tumanda yoshlar muammolarini hal yetish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yoshlar bilan ishlash samaradorligi va natijadorligi tubdan yaxshilash to'g'risida

Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonunining tumanda ijrosini ta'minlash, yoshlar tomonidan ko'tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo va masalalarning mas'ullar tomonidan hal qilinishi hamda tuman Yoshlar ishlari bo'limi boshlig'i L.Abduqaxxorovning hisobotini muhokama etib va yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 100-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Yoshlar ishlari tuman bo'limi boshlig'i L.Abduqahharovning "Tumanda yoshlar muammolarini hal yetish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yoshlar bilan ishlash samaradorligi va natijadorligi tubdan yaxshilash chora-tadbirlar to'g'risida" gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar ishlari tuman bo'limi (L.Abduqahharov), mahalladagi yoshlar yetakchilariga:

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan yoshlarning ehtiyojlari natijalari bo'yicha moliyalashtirish va monitoring olib borish;

- yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini, shu jumladan, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;

- yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosarlari (D.Ismailov, Q.Tog'ayev), Yoshlar ishlari tuman bo'limi (L.Abduqahharov), mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan birgalikda yoshlar bandligini ta'minlash uchun ularga ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish choralari ko'rish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati deputatlari tumandagi “Og‘ir” toifadagi yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar natijalari bo‘yicha o‘rganish olib borib, tuman Kengashiga ma‘lumot kiritish;

-og‘ir toifadagi yoshlarga biriktirilgan mas‘ul korxonalar va tashkilot rahbarlarining ushbu sohada olib borilayotgan ishlari o‘rganilib, tuman Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.G‘ulomov) hamda tuman hokimi o‘rinbosari D.Ismailov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH